



ADVOKATLIK FAOLIYATI KAFOLATLARINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

Bunyodov Shaxzodbek Zuryod o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

bunyodovshahzodbek@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15754492>

Annotatsiya

Ushbu maqolada advokatlik faoliyatining kafolatlari institutining nazariy-huquqiy asoslari har tomonlama tahlil qilinadi. Advokatlik institutining mustaqilligi, daxlsizligi va kasbiy erkinligini ta'minlovchi huquqiy mexanizmlar, ularning konstitutsiyaviy me'yorlar bilan uyg'unligi ilmiy asosda o'rganilgan. Maqolada advokatlik faoliyati mustaqilligini ta'minlashdagi amaliy muammolar – advokatga bosim o'tkazish holatlari, tergov va sud organlari bilan munosabatlardagi muvozanatsizlik, himoya huquqining buzilishi kabi masalalar ochib berilgan. Ushbu maqola natijalari advokatlik institutining huquqiy maqomini yanada mustahkamlash, uni huquqiy davlat barpo etishdagi roli va ahamiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar

Advokat, advokatura, advokatlik faoliyati kafolatlari, advokat daxlsizligi, advokat mustaqilligi.

Abstract

This article comprehensively analyzes the theoretical and legal foundations of the institution of guarantees of advocacy. The legal mechanisms ensuring the independence, inviolability, and professional freedom of the institution of advocacy, their harmony with constitutional norms, have been studied on a scientific basis. The article reveals practical problems in ensuring the independence of advocacy - cases of pressure on lawyers, imbalances in relations with investigative and judicial bodies, violations of the right to defense. The results of this article serve to further strengthen the legal status of the institution of advocacy, enhance its role and significance in building a state governed by the rule of law.

Keywords

Lawyer, advocacy, guarantees of advocacy activity, lawyer's immunity, lawyer's independence.

Globallashuv jarayoni va huquqiy davlat qurilishi sharoitida advokatlik instituti davlat va jamiyat hayotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Advokatlar fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sudlarda ularning manfaatlarini ifoda etish, jinoyat ishlarida





himoyani ta'minlash, shuningdek, fuqarolik, iqtisodiy va boshqa nizolarda yuridik yordam ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, advokatlik faoliyatining qonuniy kafolatlari va advokat shaxsining ijtimoiy jihatdan himoyalanganligi jamiyatdagi huquqiy barqarorlik va tizimning mustahkamligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Advokatlik kasbi huquqiy davlat barpo etish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda sud-huquq tizimining adolatli ishlashida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi qabul qilinish jarayonida advokatura institutining jamiyatda tutgan o'rni alohida e'tiborga olinib, advokatlik faoliyatining asosiy kafolatlari ilk bor konstitutsiyaviy darajaga ko'tarildi. Konstitutsiyada advokat faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmasligi, advokat va himoyalananayotgan shaxs o'rtasidagi muloqot uchun sharoitlar yaratilishi, advokatning sha'ni va kasbiy faoliyati davlat tomonidan muhofaza qilinishi mustahkamlab qo'yildi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda Prezident tashabbusi bilan advokatura tizimini takomillashtirish yo'lida muhim islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, 2018-yil 12-mayda qabul qilingan PF-5441-sonli Prezident farmoni advokatura institutining samaradorligini oshirish va advokatlar mustaqilligini kengaytirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

Shuningdek, Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va xalqqa yo'llagan Murojaatnomasida¹ inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida e'tirof etilib, ushbu yo'nalishda bir qator amaliy takliflar ilgari surildi. Xususan, davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko'rsatadigan advokatlarni elektron tanlash tizimini joriy etish, advokatga jinoyat ishi ochilishi yoki tugatilishi haqida qaror nusxasini taqdim etish, shuningdek, sudga jinoyat ishi ayblov bilan birga himoyachining fikri asosida taqdim etilishi kabi mexanizmlarni joriy qilish taklif etildi.

Mazkur islohotlar natijasida advokatlarning kasbiy faoliyati va ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash masalasi nafaqat yuridik, balki ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni mustahkamlash nuqtayi nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Shu jihatdan, bu sohani ilmiy asosda chuqur o'rganish zarurati yuzaga keldi.

Ilmiy maqola usullari va metodlari

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2012.2022. <https://president.uz/oz/lists/view/5774>





Ushbu ilmiy maqolada Ilmiy maqola maqsad va vazifalariga erishish hamda Ilmiy maqola bo'yicha samarali natijalar olish uchun normativ-huquqiy tahlil usuli, qiyosiy huquqiy tahlil usuli, tahliliy va kritik yondashuv, tavsiya va prognozlash metodlaridan foydalanildi.

Munozara

Advokatlik faoliyati huquqiy davlat va fuqaro jamiyati institutlarining ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Mazkur faoliyatning mohiyati insonning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish, sudlarda va boshqa organlarda adolatli yuridik yondashuvni ta'minlashdan iborat. Shu bois, advokatlar faoliyatining erkin, mustaqil va xavfsiz amalga oshirilishi demokratik huquqiy davlat barpo etishning muhim shartlaridan biri sanaladi.

Birinchi navbatda, "advokatlik faoliyati" so'z birikmasidagi faoliyat so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak. Bir guruh olimlarning fikriga ko'ra "faoliyat insonning muayyan muhitdagi muayyan subyektlarga nisbatan maxsus munosabatlari yig'indisi bo'lib, uning mazmuni jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda o'zgarishi hamda jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi bilan bog'liq bo'ladi. Faoliyat o'z ichiga maqsad, vosita, natija va tegishli jarayonlarni qamrab oladi"².

Mazkur tarifdan kelib chiqqan holda, advokatlik faoliyatiga "qonun doirasida belgilangan maqsadlar asosida advokat maqomiga ega bo'lgan shaxs tomonidan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, shuningdek, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish maqsadida tegishli vakolatlarni amalga oshirish jarayoni", deb qayta tarif berishimiz mumkin hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonuniga murojaat etadigan bo'lsak, advokatlik kafolatlari tushunchasiga berilgan tarifni topa olmaymiz. Advokatlik faoliyati kafolatlari deganda, advokatlarning o'z kasbiy vazifalarini qonuniy, mustaqil va erkin amalga oshirishiga imkon beruvchi **huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy va protsessual normalar tizimi** tushuniladi. Bu kafolatlar advokatni har qanday noqonuniy aralashuv, bosim, ta'qib va cheklovlardan himoya qiladi hamda ularning kasbiy mustaqilligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasida mazkur tushuncha huquqiy jihatdan belgilab qo'yilganini ko'rish mumkin.

Advokatlik faoliyati kafolatlarining huquqiy mohiyati – bu advokatning kasbiy erkinligi, mustaqilligi va huquqlarini ta'minlovchi normativ-huquqiy

² Д.Турдиалиев. Конституционные основы гарантий адвокатской деятельности. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 01 (2024) / ISSN 2181-1415





mexanizmlar majmuasidir. Aynan shu kafolatlar orqali advokat o'z kasbiy vazifalarini qonun doirasida erkin bajara oladi, tashqi bosim va aralashuvlardan himoyalanaadi hamda sud-huquq tizimida adolatli himoyani amalga oshiruvchi asosiy subyekt sifatida ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 141-142-moddalarida bevosita Advokatlik faoliyatining kafolatlarining konstitutsiyaviy asoslar bilan mustahkamlanganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida "Har kimga malakali yuridik yordam ko'rsatish huquqi kafolatlanadi. Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega", deb ko'rsatib o'tilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, advokat o'z himoyasidagi shaxsning dastlabki tergovdagi yoki suddagi nuqtai nazarini qo'llab quvvatlashi shart³.

Ba'zi olimlar qarashlariga ko'ra advokat uchun ishonch bildiruvchi shaxs manfaatlari doimo birinchi o'rinda bo'lmog'i lozim. Xususan, V.Burobin fikricha, "advokat uchun "ishonch bildiruvchi shaxs – doimo haq" degan qoida imperativ xarakterga ega".⁴ Mazkur fikrga qo'shimcha tarzda S.Shirinskiy esa "advokat himoya pozitsiyasi borasida ishonch bildiruvchi shaxsdan yozma rozilik olishi zarur" ekanligini ta'kidlaydi⁵. Mazkur fikrlarga nisbatan o'z pozitsiyamizni bildiradigan bo'lsak, albatta, ushbu fikrlaning asosli ekanligini ta'kidlashimiz lozim. Biroq, advokat tomonidan "ishonch bildiruvchi shaxsning manfaatlari ustunligi" prinsipiga amal qilishda qonun doirasida ish tutish hamda uning manfaatlarini himoya qilish uchun noqonuniy usullardan foydalanmasligi lozimligini yodda saqlash zarur.

V.A.Velgoretskayaning fikricha⁶, advokatlik faoliyatining kafolatlari — bu faqat advokatning huquqiy maqomini belgilab beruvchi me'yorlar yig'indisi emas, balki sud-huquq tizimining barqaror va izchil faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim huquqiy mexanizmdir. Huquqiy doktrinada bu tushuncha murakkab va ko'p qirrali huquqiy kategoriya sifatida baholanadi. Ushbu kafolatlar, eng avvalo, advokatga o'z kasbiy faoliyatini mustaqil va erkin tarzda amalga oshirish, shuningdek, davlat organlari yoki boshqa shaxslarning

³ Голованов Сергей Сергеевич. Гарантии независимости и неприкосновенности адвокатов. Вопросы современной юриспруденции. № 5 (66), 2017 г.

⁴ Буробин В. Адвокатская деятельность. – М.: МНЭПУ, 2001, -Б. 56.

⁵ Ширинский С.Ф. Адвокат не вправе вредить своему подзащитному. // Адвокату -2000. -№5. -Б. 25.

⁶ В.А. Вельгорецкая Адвокатская тайна: необходимость существования и сущность [Qayd daftari] // Территория науки. - 2015 yil. - bet. 170-176





aralashuvsiz mijoz manfaatlarini qonuniy asosda himoya qilish imkonini beradigan normalar tizimi sifatida qaraladi.

O'zbekistonda advokatlik faoliyati kafolatlarini ta'minlashga doir ma'lum huquqiy asoslar mavjud bo'lsa-da, ularning amalda to'liq va izchil qo'llanilishi yo'lida hali hanuz qator muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, ba'zi holatlarda advokatlarning sud majlislariga yoki tergov harakatlariga o'z vaqtida jalb etilmaydi, zarur hujjatlarga to'liq kirish imkoniyatidan mahrum bo'ladi yoki ularning himoya nuqtai nazarini yetarlicha inobatga olinmaydi. Bunday holatlar huquqiy kafolatlarning mavjudligini emas, balki amaldagi huquqiy madaniyat darajasini ochib beradi.

Masalan, 2021-yilda Bosh prokuratura tomonidan o'tkazilgan anonim so'rovnoma natijalariga ko'ra, advokatlarning himoya ostidagi shaxs bilan uchrashishiga to'sqinlik qilish holatlari surishtiruv bosqichida 461 ta, tergov jarayonida esa 328 ta holatni tashkil etgan⁷. Holbuki, amaldagi qonunchilikda advokatga surishtiruv yoki tergov bosqichlarida himoya qilinayotgan shaxs bilan hech qanday ruxsatsiz, cheklovlar va to'siqlarsiz uchrashish huquqi kafolatlangan. Ushbu qonuniy huquqning buzilishi esa advokatlik faoliyati kafolatlarining jiddiy buzilishi sifatida e'tirof etilishi lozim.

Ba'zi hollarda, Ichki ishlar boshqarmasiga qarashli tergov hibsonalarida advokatning himoyasidagi shaxs bilan uchrashuvi uchun order va guvohnomadan tashqari tergovchi, sud yoki tergov boshqarmasi ruxsatini talab qilish holatlari uchramoqda.

Holbuki, Jinoyat protsessual kodeksining 53-moddasi 2-qismiga ko'ra, himoyachi qamoqda saqlanayotgan shaxs bilan hech qanday ruxsatsiz va cheklovlar va uchrashuvlar soni va muddati bo'yicha chegaralarsiz – erkin uchrashish huquqiga ega.

Shuningdek, IIVning 2456-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Tergov hibsonalari ichki tartib qoidalarining 150-bandida ham bunday uchrashuvlar erkin va cheklanmagan bo'lishi belgilangan. Biroq ba'zan hibsona ma'muriyati ushbu talablarni buzgan holda ruxsatnoma so'raydi yoki uchrashuvni kechiktiradi, bu esa qonundagi "moneliqsiz va ruxsatsiz" tamoyiliga zid bo'lib, to'laqonli himoyani amalga oshirishga to'sqinlik qiladi.

Advokatlik faoliyatining mazmunan ijtimoiy va huquqiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olgan holda, ushbu faoliyatning mustaqilligini ta'minlash har qanday huquqiy davlatning ustuvor vazifalaridan biri sanaladi.

X.O'roqova. "“Huqularimiz qo'pol ravishda buzilmoqda” – Qashqadaryodagi advokatlarning muammolari qachon barham topadi?”//Advokat press – 2022-yil avgust. №8 (19). 8-9-bet





Advokatlar o'z faoliyatida quyidagi asosiy prinsiplar asosida faoliya olib borishi lozim hisoblanadi:

Advokatning mustaqilligi;

Advokatning kasb etikasi qoidalariga, advokatlik siri va qasamyodiga rioya etishi;

Qonunda taqiqlanmagan usullar va vositalarni qo'llash.

Mazkur prinsiplar ichida albatta advokatning mustaqilligi alohida o'rin tutadi. Chunki, advokatlik kasbining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lmish jinoyat ishlarida himoyachilik funksiyasi aksariyat hollarda davlat bilan ziddiyatga kirishgan, ya'ni manfaatlari to'qnashgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishni taqozo etadi⁸.

Bizning fikrimizcha, advokat mustaqilligi va advokatura mustaqilligi tushunchalari eshitilishi jihatidan bir-biriga yaqin tuyulsa ham, aslida bir biridan farqli tushunchalar hisoblanadi.


Advokat mustaqilligi – bu advokatning o'z faoliyatini hech qanday noqonuniy ta'sir, bosim yoki aralashuvsiz, faqat qonunga va professional etikaga asoslangan holda amalga oshirishi kafolatlanishidir. Advokat mustaqilligi advokatning yakka individ sifatidagi o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda boshqa davlat organlari va tashkilotlariga bo'ysunmasligi va ulardan mustaqilligini anglatadi.

Advokatura mustaqilligi deganda esa bu advokatura institutining davlat hokimiyati organlaridan va boshqa tashqi bosimlardan xoli holda, o'zini-o'zi boshqaruvchi tashkilot sifatida faoliyat yuritishi hisoblanadi. Ushbu tushuncha bevosita advokatlarning o'zini o'zi boshqarish organi hisoblangan Advokatlar palatasi va uning hududiy boshqarmalarining davlat hokimiyati organlaridan mustaqil tarzda faoliyat olib borishini bildiradi.

Demak, “Advokat mustaqilligi” hamda “Advokatura mustaqilligi tushunchalari bir-biridan **subyekti, mazmuni hamda himoya qilinadigan holat** jihatidan farqlanadi.

Advokatlik faoliyati mustaqilligi kafolatlaridan yana biri sifatida advokatlik sirini oshkor etilishini man etishni tushunishimi mumkin. Advokat o'z kasbini bajarish paytida himoyasidagi shaxsning yoki uni vakil qilib yollagan ichki sirlaridan, ya'ni jinoyat yoki ma'muriy ishga daxldorlik darajasi, shuningdek, oilaviy, mulkiy nizolarda – begona shaxslar bilishi lozim bo'lmagan holatlar, xo'jalik va tadbirkorlik ishlarida esa – xo'jalik yurituvchi sub'ektning tijorat

⁸ B.Salomov. O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati, uning kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi (tajriba va muammolar). Dissertatsiya. Y.f.d ilmiy daraja olish uchun – M.: Toshkent – 2005.





sirlaridan voqif bo'lishiga to'g'ri keladi⁹. Bu esa o'z navbatida ushbu ma'lumotlar daxlsizligini ta'minlash ehtimolini kuchaytiradi.

Advokat siri oshkor etilishini man etilishini ta'minlash yo'llaridan biri sifatida – advokat, uning yordamchisi va stajorning surishtiruv va dastlabki tergovda advokat sirini tashkil qiluvchi ma'lumotlar bo'yicha ko'rsatuv yoxud boshqacha tushuntirish berishni taqiqlash hisoblanadi. M.S.Strogovich advokatning guvoh sifatida so'roq qilinish mumkin emasligi haqida "himoyachi guvoh sifatida so'roq qilinishining ta'qiqlanishi – fuqarolarning advokaturaga bo'lgan ishonchini oshirishga, advokatlar yordamidan foydalanish erkinligini kafolatlashga xizmat qiladi"¹⁰, deb asosli ta'kidlagan. Lekin, ba'zi bir olimlar jumladan, A.R.Mixaylenkning "agar xizmat vazifasini bajarish tufayli himoyachiga ayblanuvchining yoki boshqa shaxslarning tayyorlanayotgan yoki sodir bo'lgan jinoyati haqida ma'lum bo'lib qolsa, bu haqida u tegishli mansabdor shaxslarni xabardor qilishi lozim va shu munosabat bilan advokat sirni oshkor qilish mumkin"ligi to'g'risidagi fikrlariga mening fikrimcha, qo'shilib bo'lmaydi.


Chunonchi, advokat o'z faoliyatida huquqni muhofaza qiluvchi organlardan mustaqil faoliyat yuritib, uning asosiy funksiyasi fuqarolar va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko'rsatish hisoblanadi. Ushbu funksiyaning samarali amalga oshirilishida, advokatning huquqni muhofaza qiluvchi organlardan mustaqilligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning yuqorida keltirilgan advokatlik sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni bevosita dastlabki tergov va surishtiruv mansabdor shaxslariga oshkor etishi, fuqarolarning advokaturaga nisbatan ishonchining kamayishiga, shuningdek, sudda tortishuv prinsipining buzilishiga olib keladi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, advokatlik faoliyatining kafolatlari huquqiy davlat va demokratik jamiyat qurilishining ajralmas elementi bo'lib, u advokatning mustaqilligi, daxlsizligi va kasbiy erkinligini ta'minlovchi asosiy huquqiy mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Quyidagi asosiy ilmiy va amaliy xulosalarga keldik:

1. Advokatlik faoliyati kafolatlari – bu faqat nazariy tushuncha emas, balki amaliyotda advokatning kasbiy huquqlarini himoya qilish va uning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'ymaslikni ta'minlaydigan normativ-huquqiy mexanizmlar

⁹ B.Salomov. O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati, uning kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi (tajriba va muammolar). Dissertatsiya. Y.f.d ilmiy daraja olish uchun – M.: Toshkent – 2005
¹⁰ Строгович М.С. Защита по уголовным делам. – М.: Госюриздат, 2012. С: 38-39





tizimidir. Bu tizim advokatga o'z faoliyatini erkin, qonuniy va xavfsiz ravishda amalga oshirish imkonini beradi.

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29, 141 va 142-moddalarida advokatlik faoliyatining konstitutsiyaviy kafolatlari ilk bor alohida belgilab berilishi ushbu institutning jamiyatdagi o'рни va ahamiyati yuksalayotganini ko'rsatadi. Bu esa advokatura institutining mustaqilligini huquqiy jihatdan yanada mustahkamlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

3. Amaliy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mavjud huquqiy asoslar yetarli darajada rivojlangan bo'lishiga qaramay, advokatlik faoliyatiga oid qonun normalarining amaliyotda to'laqonli tatbiq etilmayotgani muammoli jihatlarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan, tergov va surishtiruv bosqichida advokatlarning himoyasidagi shaxs bilan erkin uchrashuvlariga sun'iy to'siqlar qo'yilmoqda.

4. Qonunchilikda belgilanganidek, advokatning himoyasidagi shaxs bilan erkin va ruxsatsiz uchrashish huquqining cheklanishi — nafaqat qonunchilikni buzish, balki himoya huquqining buzilishi va sud-huquq tizimiga ishonchni pasaytiruvchi xavfli omil sifatida e'tirof etilishi lozim.

5. Advokatlik faoliyatining kafolatlarini mustahkamlash uchun quyidagi takliflar ilgari surildi:


- “Advokatlar faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida”gi qonunning 6-moddasi quyidagi qo'shimcha band bilan to'ldirish: “Advokatga nisbatan jinoyat ishi Advokatlar palatasi huzuridagi Oliy Malaka komissiyasining xulosasi asosida qo'zg'atilishi lozim”.

- Jinoyat protsessual kodeksi 115-moddasi birinchi qism ikkinchi bandi quyidagi talqinda o'zgartirilishi lozim: “Jinoyat ishi yuzasidan o'z vazifalarini bajarishlari natijasida o'zlariga ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida — himoyachini, shuningdek jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarning vakilini hamda guvoh advokatini”

- Advokatlik faoliyati bilan bog'liq huquqbuzarliklar bo'yicha alohida statistik monitoring tizimini joriy etish;

- Advokatlarning kasbiy huquqlari bo'yicha sud amaliyotini tizimli ravishda tahlil qilish va ommalashtirish;

Yuqoridagi natijalar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, advokatlik faoliyatining kafolatlari faqatgina huquqiy jihatdan emas, balki ijtimoiy, siyosiy va axloqiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur kafolatlarning to'laqonli va izchil ta'minlanishi huquqiy davlatning mustahkam asosi sifatida qaralishi lozim.





Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Д.Турдиалиев. Конституционные основы гарантий адвокатской деятельности. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 01 (2024) / ISSN 2181-1415.
2. Голованов Сергей Сергеевич. Гарантии независимости и неприкосновенности адвокатов. Вопросы современной юриспруденции. № 5 (66), 2017 г.
3. Буробин В. Адвокатская деятельность. – М.: МНЭПУ, 2001.
4. Ширинский С.Ф. Адвокат не вправе вредить своему подзащитному. // Адвокатю -2000. -№5.
5. B.Salomov. O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati, uning kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi (tajriba va muammolar). Dissertatsiya. Y.f.d ilmiy daraja olish uchun – M.: Toshkent – 2005.
6. X.O'roqova. ““Huqularimiz qo'pol ravishda buzilmoqda” – Qashqadaryodagi advokatlar muammolari qachon barham topadi?”//Advokat press – 2022-yil avgust. №8 (19).
7. В.А. Вельгорецкая Адвокатская тайна: необходимость существования и сущность [Qayd daftari] // Территория науки. - 2015 yil. - bet. 170-176.
8. Строгович М.С. Защита по уголовным делам. – М.: Госюриздат, 2012
- 9.. www.lex.uz
10. www.president.uz

